

OSHQOZON OLDI BO'LIMLARIDA HAZMLANISH JARAYONLARI NAZORATI

Xayitov Bekjon Norbek o'g'li - assistent,
Bakirov Baxtiyar - professor
Samarqand veterinariya meditsinasi institutida

Annotatsiya. В статье приведены сущность пищеварительных процессов в преджелудках и этиология нарушений этих процессов у продуктивных коров, доминантную роль этих нарушений в метаболизме, а также краткое сведение о лабораторных исследований содержимого рубца, как один из методов диагностики болезней преджелудков и анализ результатов предварительных исследований в этом направлении.

Summary. The article presents the essence of the digestive processes in the anterior stomachs and the etiology of disturbances of these processes in productive cows, the dominant role of these disorders in metabolism, as well as a brief summary of laboratory studies of the rumen, as one of the methods for diagnosing diseases of the anterior angina and analysis of preliminary studies in this direction.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston respublikasi prezidentining "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2019 yil 28 martdagi 5696-sonli Famoni ijrosini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishdacha va mollarning ovqat hazm qilish tizimining, shu jumladan, oshqozon oldi bo'zlimlarining kasalliklari katta to'siqlardan biri hisoblanadi.

Respublikamizning turli oziqlantirish sharoitlari, shuningdek, joyning geokologik hamda endemik xususiyatlari kesimida mahsuldor qoramollarda oshqozon oldi bo'limlari kasalliklarining turlari va o'ziga xos xususiyatlari to'liq o'rganilmagan, ularga qarshi samarali diagnostik, davolash hamda oldini olish usullari ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotlar ob'ekti va uslublari. Tadqiqotlar 2018-2019 yillar davomida Samarqand veterinariya meditsinasi instituti vivariysi va shu institutning "Ichki yuqumsiz kasalliklar va akusherlik" kafedrasida ilmiy laboratoriyasida olib borildi. Institut vivariysidagi mavjud barcha qoramollardan olingan katta qorin suyuqligi namunalari organoleptik va laborator tekshirishlardan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Kavsh qaytaruvchi hayvonlarda oshqozon ko'p kamerali bo'lib, katta qorin, to'rtqorin va qatqorindan iborat oshqozon oldi bo'limlari, shuningdek xususiy oshqozon (shirdon)dan tashkil topgan to'rtta bo'limdan iborat bo'ladi.

Asosiy hazmlanish jarayoni katta qorin hisobiga to'g'ri keladi, chunki bu yerda hazmlanish simbiotik mikroflora va mikrofauna tomonidan, xususan, bakteriyalar, infuzoriyalar, shuningdek, 160 dan ortiq turni o'z ichiga olgan bir hujayrali zamburug'lar va ularning vakillari hisoblangan achitqi zamburug'lari tomonidan sintezlanuvchi fermentlar hisobiga amalga oshadi. Oziqadagi uglevodlar va oqsillarning gidrolizlanishi natijasida sirka, sut, moy, propion, pirouzum va chumoli kislotalari, shuningdek boshqa ayrim organik kislotalar, spirt, amiak, karbonat angidrid, vodorod sul'fid, metan, azot va boshqa gazlar hosil bo'ladi. Ushbu mahsulotlarning ko'pchiligi simbiotlar uchun oziq manbai bo'lib hisoblanadi, bunday moddalardan ular protinlar hosil qilish va oqsilsiz azotni oqsilli azotga aylantirish qobiliyatiga ega.

Aniqlanishicha, katta qorin simbiotlari fermentlar tarkibiga kiruvchi ko'pchilik vitaminlarni, ayniqsa V guruh vitaminlar sintezini amalga oshiradi. Ular qandni o'simlik kraxmali va gilikogenga aylantiradi va xuddi oqsillardagidek o'z tanasida saqlaydi.

Katta qorinda simbiotlarning hayot faoliyati va funtssiyalari nisbatan doimiy va optimal hisoblangan pH muhiti 6,8 bo'lgandagina amalga oshadi. Muhitning pH-ko'rsatkichi katta qorinda hosil bo'ladigan kislotalar (yuqorida qayt etilgan) hamda katta qoringa kelib tushadigan so'lak hisobiga doimiy saqlanadi.

Nisbatan oqsilli (azotli) oziqlantirish negizida katta qorinda katta miqdordagi ammiak hosil bo'ladi va ushbu moddaning suvdagi eritmasi pH-ko'rsatkichining 8-9 bo'lishi bilan xarakterlanuvchi ishqoriy muhitni yuzaga keltiradi. Bunday muhit ichak tayoqchasi va proteydan iborat gramm musbat mikrofloriga optimal ta'sir ko'rsatadi. Har ikki holda ham, yani katta qorinda pH pasaygan yoki ko'tarilgan paytda ham, birdek,

simbiontlarning hayot faoliyati buziladi yoki halok bo'ladi, natijada hayvonlarda toksikoz holatini va butun organizm funksiyalarining buzulishini chaqiruvchi toksik moddalar hosil bo'ladi.

Ushbu hazmlanish jarayonlariga baho berish uchun katta qorin suyuqligi ham organoleptik ham laborator tekshirishlardan o'tkaziladi.

Katta qorin suyuqligini organoleptik tekshirishlar uni olgan zahoti bevosita xo'jalikda o'tkaziladi. Bunda katta qorin suyuqligining hidi, rangi, cho'kmasi va flotatsiyasi aniqlanadi.

Katta qorin suyuqligini laborator tekshirishlarda undagi pH ko'rsatkichi, uchuvchi yog' kislotalarining umumiy miqdori, mikroflora funktsional faolligi, umumiy kislotalik, azotli moddalar miqdori, nitritlar miqdori, mikroorganizmlar (infuzoriyalar va bakteriyalar) soni va ularning tur tarkiblari aniqlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tajribadagi sigirlar katta qorin suyuqligining pH ko'rsatkichi o'rtacha 7,0-7,5, undagi infuzoriyalar soni 450-550 ming/ml atrofida bo'ladi. Infuzoriyalar orasida tanasi kipriklar bilan to'liq qoplangan (*Holotricha* k-s.) va chala qoplangan (*Spirotricha* k-s.) turlar ko'p uchraydi.

Xulosa.

1. Kavsh qaytaruvchi hayvonlarda oshqozon oldi bo'limlari hazm kanalining organizmda kechadigan moddalar almashinuvi jarayoni uchun boshlang'ich materiallarni yetkazib beruvchi qismi bo'lishi bilan birgalikda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining paydo bo'lishida asosiy darvoza vazifasini ham bajaradi.

2. SamVMI vivariysidagi sigirlar katta qorin suyuqligining pH ko'rsatkichi o'rtacha 7,0-7,5, undagi infuzoriyalar soni 450-550 ming/ml atrofida bo'ldi. Infuzoriyalar orasida tanasi kipriklar bilan to'liq qoplangan (*Holotricha* k-s.) va chala qoplangan (*Spirotricha* k-s.) turlar ko'pchilikni tashkil etdi.

3. Mahsuldor qoramollarda ovqat hazmlanishi, shuningdek, moddalar almashinuvi jarayonlariga baho berishda katta qorin suyuqligini organoleptik hamda morfo-biokimyoviy tekshirishlardan o'tkazish o'ziga xos diagnostik hamda prognostik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar.

1. Кондрахин И.П., Курилов Н.В., Малахов А.Г. и др. Клиническая лабораторная диагностика в ветеринарии - М. Агропромиздат, 1985.
2. Бакиров Б.Хайвонларнинг ички юкумсиз касалликлари. Ўқув қўлланма. ЎзРОЎМТВ, 2015-йил, 02.-феврал, №32.416 Б.